

QONNING IVUVCHANLIGI QANDAY JARAYON?

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

BAXRIYEVA NAVRUZA ISLOMOVNA
MAVLANOVA NARGIZA OLIMOVNA

Annotatsiya: Ushbu maqola qonning ivuvchanligi qanday jarayon ekanligi, bu jarayon oqibatda qanday kasalliklar kelib chiqish sabablari, klinikasi, davolash, bu kasallikda zamonaviy davolash usullarini qo'llash, zamonaviy texnikalardan foydalanishga mo'ljallangan.

Аннотация: Данная статья призвана описать процесс свертывания крови, причины, клинику, лечение этого заболевания, применение современных методов лечения и применение современных методик.

Abstract: This article is intended to explain what blood clotting is, what diseases this process results in, its causes, clinical manifestations, treatment, application of modern treatment methods in this disease, and the use of modern techniques.

Qon ivishi vaqti – bu butun qonda tromb shakllanishi uchun kerak bo'lgan vaqt. Ushbu ko'rsatkichning o'shishi yoki kamayishi sog'liq bilan bog'liq muammolar yoki ma'lum dori vositalaridan foydalanayotganligi haqida habar beradi. Masalan, qon ivishiga asab va endokrin tizimlarning faoliyati ta'sir qiladi. Ushbu tizimlarni tashkil etuvchi organlar normal faoliyat yuritishni to'xtatganda, QIV o'zgarishi ehtimoli katta.

Gemofiliya -bu X-xromosoma bilan bog'liq bo'lgan qonning ivishining buzilishidan iborat kam uchrovchi va jiddiy tug'ma kasallik, bo'lib, u qonning ivish qobiliyatiga ta'sir qiladi, natijada gemologiyaga ega odamlarda qon ketishi odatdagidan uzoqroq davom etadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, taxminan har 10,000 kishidan 1 nafari gemofiliya kasalligiga chalingan va dunyo bo'ylab 450,000 kishi gemofiliyadan aziyat chekadi.

Gemofiliya qonning ivishi omillarining yetarli emasligi bilan xarakterlanadi va odatda u ota-onalardan bolga o'tadi, biroq taxminan uchdan bir holatlarda u to'satdan mutatsiya tufayli yuzaga keladi. Gemofiliyaning ikkita turlicha turi mavjud, ulardan har biri ma'lum ivish omilining yetishmasligi bilan bog'liqdir.

Eng keng tarqalgan turi A gemofiliya bo'lib, bunda shaxsda VIII (FVIII) ivish omili yetarli darajada bo'lmaydi. B gemofiliya kamroq uchraydi, bunda odamda IX (FIX) ivish omili yetarli bo'lmaydi, gemofiliyaning bu turi jami holatlarning atigi 15-20% ni tashkil qiladi. Har ikkala ivish omili uchun genlar X-xromosomada

joylashgan, shuning uchun ham u asosan ta'sirga uchragan onaning X xromosomasidan meros qilib oluvchi erkaklarga ta'sir qiladi.

DVC-sindromi (disseminatsiyalangan tomirlar ichida qon ivishi) tomirlar ichida qon ivishi buzilishi bilan ta'riflanadigan kasallikdir. U ivituvchi va fibrinolitik sistemalar tarkibiy qismlarining faollashuvi va kamayishiga olib keladi, bu esa trombozlarga moyillikni ham, ko'p qon ketishini ham keltirib chiqaradi. Bu organlarda mikrotsirkulyatsiyani buzadi, bu ularning distrofiyasi va disfunktsiyasiga olib kelishi mumkin.

DVC-sindromi gemostazning patologik jarayonlari natijasida yuzaga keladigan ikkilamchi kasallikdir. Uning kelib chiqish sabablari quyidagilardan iborat:

- Infektsion-yallig'lanish kasalliklarining asoratlari
- Ko'p qon ketishi
- Shok holatlari
- Mos kelmaydigan qon quyilganda tomir ichi gemolizi
- Qon ivishini kuchaytiruvchi preparatlar bilan uzoq muddatli davolash
- Akusherlik patologiyalari (masalan, yo'ldoshni qo'lda ajratish, qog'onoq suvlari emboliyasi)

- Xavfli hosilalarning asoratlari

DVC-sindromining xarakterli alomatlariga quyidagilar kiradi:

- Tez charchash
- Ichki qon ketishi
- O'pkadan qon ketishi
- Tromblar hosil bo'lishi
- Ko'karishlar
- Qon bosimining pasayishi
- Ko'krakdagi xirillash

Agar qonga shisha tayoqcha botirilsa, u ivimaydi. Lekin yog'och tayoqcha botirilganda ivish jarayoni boshlanadi. Shuning uchun ham qon ivish jarayonining boshlanishi uchun dag'al yuza yoki qon tomirlarining shikastlanishi kerak deb taxmin qilish mumkin. Dastavval, qonda fibrin deb ataladigan moddaning nozik ipchalari paydo bo'ladi. Bu iplar to'r kabi narsa hosil qiladi va o'rgimchak to'ri pashshani o'rab olgani singari qon hujayralarini chirmab ola boshlaydi. Bu joyda qon oqimi to'xtab, qon hujayralari to'plana boshlaydi. Bu fibrin iplari juda pishiq va elastik bo'lib, qon hujayralarini quyqa shaklida ushlab turishi mumkin. Qon quyqasi tabiat bizni qon yo'qotishdan himoya qilish uchun yaratgan gigroskopik paxtaga o'xshaydi. Turli odamlarda qon har xil tezlikda iviydi. Hatto qoni juda sekin iviydigan yoki umuman

ivimaydigan kishilar ham bor. Bu holat gemofiliya deb ataladi. Yuqish usuliga ko‘ra, bu juda xavfli kasallik. Gemofiliya faqat erkaklarga ta’sir qiladi, lekin hech qachon to‘g‘ridan to‘g‘ri otadan o‘g‘ilga o‘tmaydi. U otadan qizga o‘tishi, qiz o‘zi sog‘lom bo‘lib qolib, bu kasallikni o‘g‘liga yuqtirishi mumkin. Shunday qilib, bu kasallikni kasal boboning nabirasi “meros” qilib oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://bilim.tma.uz/articles/318>
2. <https://ghealth121.com/treatments/brain-hemorrhage/?lang=uz>